



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 12-avgust

399-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada ov qilish va ovchilik xo‘jaliklari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 23-iyuldagi PF-105-son Farmoni ijrosi haqida”gi 361-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada ov qilish va ovchilik xo‘jaliklari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 23-iyuldagi PF-105-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-avgustdagi 361-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini tumanda ta‘minlash, shuningdek, tumanda ov qilish va ovchilar tayyorlash tartibini tizimlashtirish va takomillashtirish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni tatbiq qilish, ovchilik xo‘jaliklarida bioxilma-xillikni ko‘paytirish, ov turizmi infratuzilmasini rivojlantirish orqali mahalliy aholini ish bilan ta‘minlash, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-avgustdagi 361-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining (keyingi o‘rinlarda - Ekologiya vazirligi) 2024-yil 1-sentabrdan boshlab ovchilik xo‘jaligini tashkil etishning quyidagi tartibini o‘rnatish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi, unga ko‘ra:

a) ov qilish faqat ovchilik xo‘jaliklari hududida amalga oshirilishi va ovchilik xo‘jaliklari hududidan tashqarida ov qilishni amalga oshirish taqiqlanishi (tabiiy suv oqimlarida, shuningdek, kanallarda va kollektor-drenaj tarmoqlarida umumiy foydalanish tartibida jismoniy shaxslar tomonidan baliq tutish, yovvoyi hayvonlarning sonini tartibga solish maqsadida ov qilish hamda Ekologiya vazirligi tomonidan belgilangan tartibga asosan erkin ov qilish hududlarida ov qilish bundan mustasno ekanligi);

b) ovchilik xo‘jaliklarini tashkil etish uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar hamda o‘rmon fondi yerlaridan 10 gektargacha yer uchastkasi ovchilik bazalari va 100 gektargacha yer uchastkasi pitomniklar barpo etish uchun bitta lot sifatida investitsiya

va shartnomaviy majburiyatlarni belgilagan holda yuridik va jismoniy shaxslarga elektron onlayn-auksion orqali 49 yil muddatga quyidagi bosqichlarda ijara huquqi asosida ajratilishi:

birinchi bosqichda — 10 yil muddatga;

investitsiya va shartnomaviy majburiyatlarni bajarish natijalariga ko'ra:

ikkinchi bosqichda — 10 yil muddatga;

uchinchi bosqichda — 29 yil muddatga.

Bunda, ikki yil muddat ichida yovvoyi hayvonlarni yetishtirish va takror ko'paytirish bo'yicha pitomniklar infratuzilmasi yoki takror ko'paytirish uchastkasi tashkil qilinmasa, ijara shartnomasi bekor qilinishi;

v) elektron onlayn-auksion g'olibi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga ovchilik xo'jaliklariga (ovchilik bazalari va pitomniklarga) tutash hududdagi ov qilish joylari Ekologiya vazirligi bilan to'g'ridan-to'g'ri tuziladigan ov qilish joylarini berish to'g'risidagi shartnomaga asosan ovchilik xo'jaligini yuritish uchun biriktirib berilishi;

g) ovchilik xo'jaliklari:

Ekologiya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan formatda ishlab chiqilgan va kelishilgan 10 yilga mo'ljallangan texnik-iqtisodiy asosnoma materiallari asosida faoliyat yuritishi;

pitomniklarda yovvoyi hayvonlarni to'liq bosqichda yetishtirishni yo'lga qo'ygan holda o'zlariga biriktirilgan ov qilish joylariga qo'yib yuborilgan yovvoyi hayvonlar soniga teng miqdorida yovvoyi hayvonlarni Ekologiya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartib asosida, ularning urchish paytlaridan tashqari yil davomida ov qilishni tashkil etishi;

d) yovvoyi hayvonlarning urchish paytlari Zoologiya institutining xulosasi asosida belgilanishi;

2024-yil 1-sentabrgacha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'ziga tegishli yer uchastkalarida ovchilik bazalari va pitomniklar tashkil etilgan taqdirda, ovchilik xo'jaligini yuritish uchun ushbu yer uchastkasiga tutash hududdagi ov qilish joylari Ekologiya vazirligi bilan to'g'ridan-to'g'ri tuziladigan ov qilish joylarini berish to'g'risidagi shartnomaga asosan 49 yil muddatga biriktirib berilishi belgilanganligi;

Ov qilish va ovchilik xo'jaliklari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha «yo'l xaritasi» ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Belgilanishicha:

a) 2024-yil 1-oktabrdan boshlab ovchilarga ovchilik yo'llanmasi yovvoyi hayvonlarni tutishga doir kvotalar asosida Ekologiya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan elektron dastur orqali berilishi;

b) yovvoyi hayvonlarni tutishga doir kvota hayvonot dunyosi obyektlarining davlat kadastri ma'lumotlari, yovvoyi hayvonlar sonini hisobga olish va tutiladigan yovvoyi hayvonlarni hisobga olish ma'lumotlari, respublikada mavjud o'rmon xo'jaliklari, qo'riqxonalar, pitomniklar va shunday faoliyat bilan shug'ullanuvchi boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan olingan yovvoyi hayvonlarni hisobga olish ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda Ekologiya vazirligi tomonidan o'rnatilishi;

v) o'lja ovi tashkil etilganda ov mavsumidan qat'i nazar haftaning barcha kunlarida ov qilishga ruxsat berilishi;

g) sanoat usulida baliq ovlash uchun ruxsat etilgan to'rlarni faqat sanoat usulida baliq ovlash uchun kvotalar ajratilgan baliqchilik xo'jaliklariga sotishga yo'l qo'yilishi, kvotalar ajratilmagan baliqchilik xo'jaliklariga sotish taqiqlanishi;

Belgilab qo'yilishicha:

a) Ekologiya vazirligining Ekologiya jamg'armasiga (keyingi o'rinlarda - Jamg'arma) yovvoyi hayvonlarni tutishga doir ruxsatnomani berishdan kelib tushgan mablag'larning:

80 foizi - yovvoyi hayvonlar va ixtiofauna obyektlarini takror ko'paytirish va ular hisobini yuritish hamda muhofaza qilish;

20 foizi -Departament ta'minoti va Jamg'arma nizomida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar uchun yo'naltirilishi;

b) 2025-yil 1-yanvardan boshlab Jamg'arma mablag'lari hisobidan ovchilik xo'jaliklaridagi pitomniklarda yovvoyi hayvonlarni to'liq bosqichda yetishtirish (ko'paytirish) xarajatlarining bir qismini qoplash uchun har yili 5 milliard so'mgacha mablag' ajratilishi;

v) ov qilish joylaridan foydalanganlik uchun undirilgan to'lovlar, ovchilik guvohnomasini rasmiylashtirish, ovchilik guvohnomasini olish uchun o'quv kurslarida o'qitishdan tushadigan mablag'lar Jamg'armaga yo'naltirilishi;

g) 2024-yil 1-sentabrdan boshlab yovvoyi hayvonlarni ko'paytirish joylarini, kichik safari parklar va ov turizmini tashkil qilgan ovchilik xo'jaliklari ushbu faoliyat yo'nalishlarini tashkil qilgandan boshlab uch yil muddat mobaynida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini ushbu soliqlar bo'yicha belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 50 foizga kamaytirilgan soliq stavkalari bo'yicha, shuningdek, aylanmadan olinadigan soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo'yicha to'lashi;

d) ovlangan o'ljalardan hamda tabiat in'om etgan mahsulotlardan hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi hunarmandlar "Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar reestri"ga kiritilishi va ularga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi "Aholini hunarmandchilikka jalb yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-91-son Farmoni va 2019-yil 28-noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4539-son qarorida belgilangan imtiyozlar tatbiq etilishi belgilanganligi e'tiborga olinsin.

3. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi, tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (A.Xudoyberdiyev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jo'rabayev), tuman Adliya bo'limi (X.Qobilov) hamda aloqador tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada ov qilish va ovchilik xo'jaliklari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 23-iyuldagi PF-105-son Farmoni talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni tuman hokimining o'rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov